

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 113-sahifa.
2026-yil, sentabr.





MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilgan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113





QUM-SHAG'AL MAHSULOTLARINI REALIZATSIYA QILISHDA SOLIQ BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASI "MINIMAL NARX" MEXANIZMINING TATBIQ CHEGARALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy tadqiqot markazi doktoranti, i.f.f.d., (PhD)

E-mail: xalikchayeva@gmail.com

ORCID: 0009-0002-8782-2762

Annotatsiya. Maqolada qum-shag'al aralashmasini karyerda realizatsiya qilishda qo'llaniladigan minimal realizatsiya qiymati mexanizmining soliq bazasini aniqlashdagi metodik chegaralari tadqiq etilgan. Natijada minimal narx mexanizmini yer qa'ridan foydalanuvchi yoki karyer operatorining qazib olingan va qayta ishlanmagan qum-shag'al aralashmasini birinchi xaridorga sotishi bilan chegaralovchi metodik yondashuv taklif qilindi. Transport, yuklash va boshqa alohida hujjatlashtirilgan xizmatlarni mahsulot qiymatidan ajratish, realizatsiya hajmini EHF, yuk xati va o'lchov dalolatnomasi orqali o'zaro verifikatsiya qilish hamda qaytarish va tuzatishlarni hujjatli audit izi asosida rasmiylashtirish zarurligi asoslandi. Taklif soliq bazasining asossiz kengayishi va kamayishining oldini olish, normani bir xil talqin qilish hamda soliq nizolarini qisqartirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: soliq bazasi, minimal narx, qum-shag'al aralashmasi, karyer operatori, birlamchi realizatsiya, QQS, foyda solig'i, soliq ma'muriyatchiligi, verifikatsiya.

Аннотация. В статье исследуются методические границы применения механизма минимальной цены реализации песчано-гравийной смеси при определении налоговой базы. Предложено ограничить сферу действия минимальной цены первичной реализацией добытой и необработанной песчано-гравийной смеси недропользователем или оператором карьера первому покупателю. Обосновано раздельное отражение стоимости продукции и документально подтвержденных транспортных, погрузочных и сервисных услуг, а также взаимная проверка объема реализации по электронному счету-фактуре, товарно-транспортным документам и акту измерения. Предлагаемый подход способствует более точному определению налоговой базы, единообразному применению нормы и снижению налоговых споров.

Ключевые слова: налоговая база, минимальная цена, песчано-гравийная смесь, карьер, первичная реализация, НДС, налог на прибыль, налоговое администрирование.

Abstract. This article examines the methodological boundaries of applying a minimum selling price mechanism to sand-and-gravel mixtures for tax-base determination. A methodological approach is proposed under which the minimum price rule applies only to the primary sale of extracted and unprocessed sand-and-gravel mixture by a subsoil user or quarry operator to the first purchaser. The article also substantiates the separation of the quarry product value from separately documented transportation, loading and service charges, cross-verification of cubic-meter volumes through electronic invoices, waybills and measurement records, and documentary control of returns and adjustments. The proposed framework is designed to prevent both unjustified erosion and artificial expansion of the tax base, ensure consistent interpretation of the rule and reduce tax disputes.

Keywords: tax base, minimum price, sand-and-gravel mixture, quarry operator, primary sale, VAT, corporate income tax, tax administration, verification.





KIRISH

Resurs qazib olish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq operatsiyalarda soliq bazasining ishonchli shakllanishi fiskal barqarorlik bilan bir qatorda tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy aniqlikni ham talab qiladi. Soliq bazasi faqat stavka qo'llanadigan miqdoriy ko'rsatkich emas; uning tarkibi, qiymat manbasi, operatsiya bosqichi va tasdiqlovchi hujjatlari noto'g'ri belgilansa, bir xil iqtisodiy operatsiya turlicha soliqqa tortilishi mumkin. Soliqqa tortish nazariyasida keng va aniq belgilangan baza, neytrallik hamda ma'murchilikning soddaligi samarali soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida qaraladi [1].

O'zbekiston soliq tizimida 2025-yildan qum-shag'al aralashmasini karyerda realizatsiya qilish bo'yicha QQS va foyda solig'ini hisoblash maqsadida 1 m³ uchun 20 000 so'mdan kam bo'lmagan minimal realizatsiya qiymati nazarda tutilgan [2]. Mazkur yondashuvning iqtisodiy mohiyati bozor bitimida narxning asossiz pasaytirilishi natijasida soliq bazasi qisqarishiga qarshi "quyi chegara" yaratishdan iborat. Biroq narxning o'zi nazorat qilinishi soliq bazasining barcha tarkibiy elementlari avtomatik ravishda to'g'ri aniqlanishini anglatmaydi.

Amaliy nuqtayi nazardan bir nechta savol yuzaga keladi. Jumladan, minimal qiymat aynan qaysi sotuvchiga nisbatan qo'llanadi, "karyerda realizatsiya" faqat qazib oluvchining birinchi sotuvini anglatadimi, vositachi tomonidan qayta sotilgan ayni mahsulotga maxsus tartib yana qo'llanadimi, yetkazib berish, yuklash yoki boshqa servis xizmatlari mahsulot narxining tarkibiga kiradimi; realizatsiya hajmi va keyingi tuzatishlar qaysi hujjatlar bilan tasdiqlanadi? Ushbu tadqiqotda aynan shu masalalar minimal narx miqdoridan ko'ra uning tatbiq chegaralarini aniqlashtirish zarurligini ko'rsatgan.

Maqolaning maqsadi qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda minimal narx mexanizmining iqtisodiy vazifasini saqlagan holda, uning QQS va foyda solig'i bazasiga tatbiq etilish chegaralarini metodik jihatdan aniqlashtirishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy vazifasi maxsus tartibning subyekti, operatsiya bosqichi, mahsulot holati, narx tarkibi, hajmni tasdiqlash hamda qaytarish va tuzatishlar bo'yicha o'zaro bog'langan mezonlarni ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq bazasining shakllanishi masalasi davlat moliyasi nazariyasida soliq yukining taqsimlanishi, fiskal samaradorlik va ma'muriy xarajatlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Musgrave va Musgrave soliq tizimining samaradorligini fiskal ehtiyojlar bilan iqtisodiy xulq-atvorga ta'sir o'rtasidagi muvozanat nuqtayi nazaridan izohlaydi [1]. Bird esa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda soliq bazasini keng va ma'murchilik uchun kuzatiladigan shaklda tashkil etish soliq islohotlarining barqarorligi uchun muhimligini ta'kidlaydi [3].

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha Ebrill, Keen, Bodin va Summers tomonidan olib borilgan tadqiqotlar QQSning samarali ishlashi hujjatlashtirilgan tranzaksiyalar zanjiri va aniq hisob-kitob bazasiga bog'liqligini ko'rsatadi [4]. Keen va Lockwood QQSning joriy etilishi va fiskal natijalarini tahlil qilib, soliq





ma'muriyatchiligi sifatini uning nazariy afzalliklarini amaliy natijaga aylantiruvchi asosiy omillardan biri ekanini qayd etadi [5]. Bu yondashuv resurs mahsulotlarida narxning quyi chegarasi qo'llanilganda ham faqat narx emas, balki operatsiyaning iqtisodiy mazmuni va audit izi muhimligini ko'rsatadi.

OECD soliq ma'muriyatchiligiga oid tadqiqotlarda soliq hisobotlarining to'liqligi va aniqligini ta'minlash uchun elektron ma'lumotlarni o'zaro solishtirish, risklarni boshqarish va tranzaksiya izini kuzatish vositalariga katta e'tibor qaratadi [6]. Raqamli ma'lumotlarni standartlashtirish va turli manbalardan olingan axborotni uyg'unlashtirish soliq bazasini tekshirishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida qoraladi [7].

O'zbekiston sharoitida soliq bazasini aniqlash metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda huquqiy me'yor, baholash usuli, ma'lumot manbalari va nazorat mexanizmlarini bir-biridan ajratmasdan o'rganish zarurligi ta'kidlanadi [8; 9]. Biroq qum-shag'al aralashmasi uchun minimal realizatsiya qiymatini aynan savdo zanjirining qaysi bosqichiga bog'lash, mahsulot qiymatini logistika xizmatlaridan ajratish va m³ ko'rsatkichini hujjatlararo verifikatsiya qilish masalasi alohida metodik obyekt sifatida yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Shu sababli ushbu tadqiqot narxning quyi chegarasini belgilashning o'zini yangilik sifatida talqin qilmaydi. Ilmiy e'tibor amaldagi mexanizmning tatbiq doirasini iqtisodiy operatsiya mazmuniga mos ravishda chegaralash va bir savdo zanjirida maxsus tartibning takroran qo'llanishini bartaraf etishga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik-normativ bazasini O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi [10], 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1014-son Qonuni [2], soliq ma'muriyatchiligi va soliq bazasini aniqlashga oid xalqaro metodologik manbalar [6; 7] hamda dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan hisob-kitob materiallari tashkil etdi.

Tadqiqotda beshta o'zaro bog'langan usul qo'llanildi. Birinchidan, normativ-huquqiy tahlil yordamida minimal realizatsiya qiymatining huquqiy vazifasi va tatbiq doirasi o'rganildi. Ikkinchidan, funksional dekompozitsiya usuli orqali realizatsiya zanjiri "qazib oluvchi – birinchi xaridor – vositachi – yakuniy xaridor" bosqichlariga ajratildi. Uchinchidan, mezonli guruhlash asosida norma subyekti, operatsiya bosqichi, mahsulot holati, narx tarkibi, hajmni tasdiqlash va tuzatishlar alohida indikatorlar sifatida shakllantirildi. To'rtinchidan, qiyosiy tahlil yordamida maxsus tartibning keng va chegaralangan talqinlari solishtirildi. Beshinchidan, shartli hisob-kitob orqali ushbu talqinlarning QQS bazasiga miqdoriy ta'siri baholandi.

Hisoblash mantiqi quyidagicha shakllantirildi: birlamchi realizatsiyada soliq bazasi shartnomaviy qiymat bilan qonunchilikda belgilangan minimal qiymatning kattasiga teng deb olinadi. Keyingi qayta sotuvda esa, agar sotuvchi yer qa'ridan foydalanuvchi yoki karyer operatori bo'lmasa va operatsiya birlamchi realizatsiya xususiyatini yo'qotgan bo'lsa, umumiy soliqqa tortish qoidalari qo'llanadi. Bunda



mahsulot qiymati bilan alohida xizmatlarning qiymati aralashtirilmasligi metodologiyaning muhim sharti sifatida belgilandi.

Tadqiqotdagi miqdoriy misollar real korxonaning maxfiy moliyaviy ma'lumotlari emas, balki mexanizmning ishlash mantig'ini ko'rsatishga xizmat qiluvchi shartli hisob-kitoblardir. Shu sababli natijalar muayyan korxonaning fiskal holatini baholash uchun emas, turli talqinlarning soliq bazasiga qanday ta'sir qilishini metodik jihatdan ko'rsatish uchun qo'llanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Minimal narx mexanizmini tahlil qilishda birinchi navbatda uning fiskal vazifasi bilan tatbiq chegarasini farqlash zarur. Narxning quyi chegarasi realizatsiya qiymatini sun'iy kamaytirish xavfini cheklaydi. Biroq ushbu chegara savdo zanjiridagi har bir keyingi bitimga avtomatik ravishda ko'chirilsa, mexanizm dastlabki maqsadidan chiqib, bozor qiymatida shakllangan keyingi operatsiyalarga ham maxsus tuzatish kiritish vositasiga aylanishi mumkin.

Muammoni bartaraf etish uchun "karyerda realizatsiya"ni geografik joyni bildiruvchi ibora sifatida emas, balki subyekt, mahsulot va operatsiya bosqichi birgalikda mavjud bo'ladigan soliq-huquqiy holat sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bunda sotuvchining karyer operatori yoki yer qa'ridan foydalanuvchi maqomi, mahsulotning qazib olingan va qayta ishlanmagan holati hamda sotuvning birinchi xaridorga yo'naltirilganligi bir vaqtda tekshiriladi.

1-jadval

Minimal realizatsiya qiymatini qo'llash chegarasini belgilovchi metodik mezonlar

Mezon	Taklif etilayotgan yondashuv	Kutiladigan metodik natija
Sotuvchi maqomi	Maxsus qoida yer qa'ridan foydalanuvchi yoki karyer operatorining realizatsiyasiga bog'lanadi.	Soliq majburiyati yuklatiladigan subyekt aniqlashadi.
Savdo bosqichi	Minimal qiymat birinchi xaridorga amalga oshirilgan birlamchi sotuvga tatbiq etiladi.	Keyingi qayta sotuvlarda takroriy maxsus tuzatishning oldi olinadi.
Mahsulot holati	Qazib olingan va qayta ishlanmagan qum-shag'al aralashmasi qamrab olinadi.	Qayta ishlangan mahsulotlar bilan obyekt chegarasi aralashmaydi.
Narx tarkibi	Karyerdagi mahsulot qiymati transport, yuklash va boshqa alohida xizmatlardan ajratiladi.	Taqqoslanadigan mahsulot narxi shaffoflashadi.
Miqdoriy tasdiq	m ³ hajm EHF, yuk xati va o'lchov dalolatnomasi ma'lumotlari orqali tekshiriladi.	Narx nazorati hajmni kamaytirib ko'rsatish orqali chetlab o'tilishi cheklanadi.
Tuzatishlar	Qaytarish, chegirma va xatolar tuzatuvchi EHF hamda tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.	Audit izi saqlanadi va asossiz kamaytirishlar cheklanadi.



1-jadvaldagi mezonlar minimal narxni faqat qiymat ko'rsatkichi sifatida emas, balki soliq bazasini shakllantiruvchi bir nechta elementlarning uyg'un tizimi sifatida qo'llash imkonini beradi. Chunki realizatsiya bazasi narx bilan birga hajmga ham bog'liq. Narx nazorat qilinib, m³ hajm hujjatlararo tekshirilmasa, bazani miqdor orqali kamaytirib ko'rsatish xavfi saqlanib qoladi. Xuddi shuningdek, mahsulot narxi bilan transport yoki yuklash xizmatlari bir summada ko'rsatilsa, minimal qiymat bilan qaysi qiymatni taqqoslash kerakligi bo'yicha bahs yuzaga kelishi mumkin.

2-jadval

Qum-shag'al mahsulotining realizatsiya zanjirida maxsus tartibni ajratish

Bosqich	Sotuvchi	Operatsiya mazmuni	Minimal narx qoidasi
1-bosqich	Karyer operatori / yer qa'ridan foydalanuvchi	Mahsulotni qurilish korxonasiga birinchi sotish	Qo'llanadi
1-bosqich	Karyer operatori / yer qa'ridan foydalanuvchi	Mahsulotni vositachiga birinchi sotish	Qo'llanadi
2-bosqich	Vositachi	Oldin xarid qilingan mahsulotni qayta sotish	Qo'llanmaydi; umumiy tartib
Qayta ishlashdan keyin	Qayta ishlovchi korxona	Saralangan, maydalangan yoki xususiyati o'zgargan mahsulotni sotish	Qo'llanmaydi; umumiy tartib
Xizmat operatsiyasi	Transport/yuklash/servis ko'rsatuvchi	Mahsulotdan alohida xizmat ko'rsatish	Mahsulot uchun minimal narx qoidasi qo'llanmaydi
Ichki harakat	Bir korxona bo'linmalari	Korxona ichida mahsulotni ko'chirish	Realizatsiya bo'lmagani uchun qo'llanmaydi

2-jadvaldan ko'rinadiki, mezon xaridorning maqomiga emas, avvalo sotuvchining huquqiy-iqtisodiy maqomi va operatsiyaning birlamchi xususiyatiga bog'lanadi. Karyer operatori mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga sotsa ham, vositachiga sotsa ham, bu qazib olingan mahsulotning birinchi realizatsiyasi bo'lgani uchun maxsus mexanizm doirasida qoladi. Vositachi tomonidan amalga oshiriladigan keyingi sotuv esa boshqa iqtisodiy bosqich bo'lib, unga umumiy soliq qoidalarini tatbiq etish mantiqan asosli.

Mahsulotning qayta ishlanishi ham chegaralovchi omildir. Saralash, maydalash yoki boshqa texnologik jarayon natijasida mahsulotning sifat va iqtisodiy xususiyatlari o'zgarsa, dastlabki qazib olingan qum-shag'al aralashmasi uchun belgilangan minimal qiymatni aynan shu shaklda saqlab qolish taqqoslanuvchanlikni buzishi mumkin. Shuning uchun maxsus tartibning obyekt chegarasi qayta ishlanmagan mahsulot bilan bog'lanishi zarur.

Narx tarkibini ajratish alohida ahamiyatga ega. Yetkazib berilgan umumiy narx mahsulotning karyerdagi qiymati, tashish, yuklash, tushirish va boshqa



servis xarajatlaridan iborat bo'lishi mumkin. Minimal qiymat mahsulotning o'ziga taalluqli bo'lsa, alohida hujjatlashtirilgan xizmatlarni uning tarkibiga majburan qo'shish ham, aksincha mahsulot qiymatining bir qismini sun'iy ravishda xizmatlarga o'tkazish ham metodologik jihatdan noto'g'ri natija beradi. Shu sabab elektron hisob-faktura va shartnomada tovar hamda xizmat komponentlarining alohida identifikatsiyasi talab etiladi.

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, karyer operatori mahsulotni 18 000 so'm/m³ narxda sotganda amaldagi qiymat 180 mln so'mni tashkil etadi. Minimal qiymat 20 000 so'm/m³ bo'lgani sababli birlamchi realizatsiya bazasi 200 mln so'mga keltiriladi. Natijada soliq bazasiga 20 mln so'mlik tuzatish kiritiladi va 12 foizlik QQS stavkasida qo'shimcha hisoblangan QQS 2,4 mln so'mni tashkil etadi. Bu natija minimal narx mexanizmining undervaluationga qarshi fiskal vazifasiga mos keladi.

3-jadval

Birlamchi va keyingi sotuvda minimal qiymat qoidasining soliq bazasiga ta'sirini qiyosiy baholash

Ko'rsatkich	Karyer operatorining birlamchi sotuvi	Vositachining keyingi sotuvi
Shartnomaviy narx	18 000 so'm/m ³	19 000 so'm/m ³
Amaldagi realizatsiya qiymati	180 mln so'm	190 mln so'm
Minimal narx keng talqin qilinganda	200 mln so'm	200 mln so'm
Taklif etilgan metodika bo'yicha soliq bazasi	200 mln so'm	190 mln so'm
Soliq bazasidagi tuzatish	+20 mln so'm	Tuzatish kiritilmaydi
QQS bo'yicha ta'sir	+2,4 mln so'm	Umumiy tartibda hisoblanadi

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, karyer operatori mahsulotni 18 000 so'm/m³ narxda sotganda amaldagi qiymat 180 mln so'mni tashkil etadi. Minimal qiymat 20 000 so'm/m³ bo'lgani sababli birlamchi realizatsiya bazasi 200 mln so'mga keltiriladi. Natijada soliq bazasiga 20 mln so'mlik tuzatish kiritiladi va 12 foizlik QQS stavkasida qo'shimcha hisoblangan QQS 2,4 mln so'mni tashkil etadi. Bu natija minimal narx mexanizmining undervaluationga qarshi fiskal vazifasiga mos keladi.

Vositachi ayni mahsulotni 19 000 so'm/m³ bo'yicha qayta sotganda realizatsiya qiymati 190 mln so'mni tashkil qiladi. Agar minimal qiymat mexanizmi savdo zanjirining ushbu bosqichiga ham keng talqin bilan tatbiq etilsa, soliq bazasi yana 200 mln so'mga ko'tarilib, iqtisodiy jihatdan boshqa subyektning keyingi bitimiga 10 mln so'mlik qo'shimcha tuzatish yuzaga keladi. Taklif etilayotgan metodikada vositachi karyer operatori emasligi va operatsiya birlamchi realizatsiya xususiyatiga ega bo'lmagani sababli 190 mln so'mlik haqiqiy realizatsiya qiymati umumiy tartibda qabul qilinadi.

Bu yondashuv fiskal manfaatni zaiflashtirmaydi. Aksincha, minimal qiymat mexanizmi aynan uning iqtisodiy maqsadi mavjud bo'lgan nuqtada – qazib



oluvchining birlamchi sotuv bosqichida – saqlanadi. Shu bilan birga, keyingi savdo ustamalarini yoki vositachining bozor sharoitidagi narxini asossiz ravishda maxsus minimal qiymatga bog'lash bartaraf etiladi. Natijada soliq bazasining sun'iy pasaytirilishi bilan bir qatorda sun'iy kengaytirilishiga ham yo'l qo'yilmaydi.

Taklif etilayotgan mexanizmning nazorat qismi uch tomonlama verifikatsiyaga asoslanishi mumkin: EHF realizatsiya qiymati va tovar nomenklaturasini, yuk xati tashilgan mahsulot va harakat faktini, o'lchov dalolatnomasi esa m^3 miqdorini tasdiqlaydi. Ushbu ma'lumotlarning o'zaro mosligi avtomatlashtirilgan risk indikatoriga aylantirilsa, narxning quyi chegarasi bilan bir qatorda miqdoriy manipulyatsiyalar ham aniqlanishi mumkin. OECDning zamonaviy soliq ma'muriyatchiligiga oid yondashuvlari ham elektron ma'lumotlar va uchinchi tomon axborotini o'zaro solishtirishni nazorat sifatini oshiruvchi vosita sifatida ko'rsatadi [6; 7].

4-jadval

Minimal narx mexanizmini qo'llash uchun tavsiya etilayotgan ketma-ket tekshiruv algoritmi

Tekshiruv qadami	Asosiy savol	Qaror
1. Subyektni aniqlash	Sotuvchi yer qa'ridan foydalanuvchi yoki karyer operatorimi?	Yo'q bo'lsa, umumiy tartib.
2. Mahsulotni aniqlash	Tovar qazib olingan va qayta ishlanmagan qum-shag'al aralashmasimi?	Yo'q bo'lsa, maxsus tartib qo'llanmaydi.
3. Bosqichni aniqlash	Bu mahsulotning birinchi xaridorga realizatsiyasimi?	Ha bo'lsa, minimal qiymat testi o'tkaziladi.
4. Narxni ajratish	Mahsulot qiymati logistika va servisdan alohida ko'rsatilganmi?	Ajratilmagan bo'lsa, hujjatlar aniqlashtiriladi.
5. Hajmni tekshirish	EHF, yuk xati va o'lchov dalolatnomasidagi m^3 bir-biriga mosmi?	Tafovut bo'lsa, riskli operatsiya sifatida tekshiriladi.
6. Tuzatishni tekshirish	Qaytarish/chegirma tegishli tuzatuvchi hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?	Tasdiqlanmagan kamaytirish bazaga ta'sir ettirilmaydi.

4-jadvaldagi algoritmnin afzalligi shundaki, soliq organi yoki soliq to'lovchi minimal narx qoidasini faqat bitta ko'rsatkich - shartnomaviy narx - asosida emas, balki operatsiyaning iqtisodiy mazmunini ketma-ket tekshirish orqali qo'llaydi. Bu yondashuv raqamli soliq ma'muriyatchiligiga ham mos: har bir mezon elektron hujjatlardagi alohida maydonlar bilan bog'lanishi va risk tahlili tizimida avtomatik nazorat qilinishi mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot qum-shag'al aralashmasi uchun minimal realizatsiya qiymatini belgilashning o'zi soliq bazasini to'liq va bir xil aniqlash uchun yetarli emasligini ko'rsatdi. Mexanizmning fiskal vazifasi realizatsiya qiymatini sun'iy pasaytirish xavfini cheklashdan iborat bo'lsa-da, tatbiq doirasi aniq metodik





mezonlarga ega bo'lmasa, maxsus tartibning keyingi qayta sotuvlarga takroran tatbiq etilishi yoki mahsulot qiymati bilan xizmatlar qiymatining aralashishi mumkin.

Tadqiqot natijasida minimal narx qoidasini yer qa'ridan foydalanuvchi yoki karyer operatori tomonidan qazib olingan va qayta ishlanmagan qum-shag'al aralashmasining birinchi xaridorga realizatsiyasi bilan bog'lash taklif etildi. Ushbu yondashuvda xaridorning vositachi yoki yakuniy iste'molchi ekanligi hal qiluvchi omil emas; asosiy mezon sotuvchining maqomi va operatsiyaning birlamchi xususiyatidir.

Keyingi qayta sotuvlar, qayta ishlash natijasida iqtisodiy xususiyati o'zgargan mahsulotlar hamda alohida hujjatlashtirilgan transport, yuklash va servis xizmatlariga umumiy soliqqa tortish qoidalarini qo'llash maqsadga muvofiq. Mahsulotning karyerdagi qiymatini xizmatlar qiymatidan ajratish minimal narx bilan taqqoslanadigan bazaning iqtisodiy mazmunini saqlaydi.

Realizatsiya hajmini EHF, yuk xati va o'lchov dalolatnomasi ma'lumotlari orqali o'zaro verifikatsiya qilish, qaytarish va chegirmalarni esa faqat tuzatuvchi hujjatlar asosida hisobga olish tavsiya etiladi. Bunday tartib narx nazorat qilinayotgan sharoitda hajm yoki tuzatishlar orqali soliq bazasini asossiz kamaytirish kanallarini cheklaydi.

Shartli hisob-kitobda birlamchi realizatsiya bo'yicha 180 mln so'mlik qiymat minimal narx tufayli 200 mln so'mga keltirilib, 20 mln so'mlik baza tuzatishi va 2,4 mln so'mlik qo'shimcha QQS yuzaga kelgan. Vositachining 190 mln so'mlik keyingi sotuviga maxsus tartibni qayta tatbiq etmaslik esa 10 mln so'mlik asossiz qo'shimcha bazaning shakllanishini bartaraf etadi.

Demak, taklif etilayotgan metodik aniqlashtirish minimal narx mexanizmini bekor qilish yoki uning fiskal ta'sirini kamaytirishga emas, aksincha uning iqtisodiy maqsadga muvofiq chegarada ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Natijada QQS va foyda solig'i bazasini aniqlashda izchillik, huquqiy aniqlik va tekshiruvchanlik kuchayadi, bir xil operatsiyalarni turlicha talqin qilish hamda soliq nizolari yuzaga kelishi ehtimoli kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. New York: McGraw-Hill, 1989.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrda O'RQ-1014-son Qonuni "Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida". LEX.UZ.
3. Bird R.M. The BBLR Approach to Tax Reform in Emerging Countries. International Studies Program Working Paper 08-04. Georgia State University, 2008.
4. Ebrill L., Keen M., Bodin J.-P., Summers V. The Modern VAT. Washington, DC: International Monetary Fund, 2001. 223 p.





5. Keen M., Lockwood B. The Value Added Tax: Its Causes and Consequences. Journal of Development Economics, 2010, Vol. 92, No. 2, pp. 138-151. DOI: 10.1016/j.jdeveco.2009.01.012.
6. OECD. Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. Paris: OECD Publishing, 2023.
7. OECD. Tax Administration Digitalisation and Digital Transformation Initiatives: Data Management and Standards. Paris: OECD, 2025.
8. Khalikchaeva S.I. The Importance of the Methodology for Determining the Taxable Base in the Tax System. International Journal of Management and Economics Fundamental, 2025, Vol. 5(06), pp. 6-10. DOI: 10.37547/ijmef/Volume05Issue06-02.
9. Khalikchaeva S.I. An Analytical Assessment of the Methodological Framework for Determining the Tax Base in the Tax System of the Republic of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 2025, Vol. 8(11), pp. 5660-5668. DOI: 10.31150/ajebm.v8i11.4189
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy